

JINOIY JAZONING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHNING ZARURATI VA ISTIQBOLLARI



Mirzayev Jahongir Umirzoqovich

O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti
yetakchi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Исследовательский институт
криминологии Республики
Узбекистан, ведущий научный
сотрудник, доктор философии
по юридическим наукам (PhD)

Research Institute of
Criminology of the Republic of
Uzbekistan, Leading Researcher,
Doctor of Philosophy (PhD) in
Legal Sciences

Annotatsiya. Maqolada jinoiy jazoning samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqishning dolzarbligi, uning nazariy-huquqiy asoslari hamda amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, jazo tayinlash va ijro etish tizimida insonparvarlik, adolat va profilaktika tamoyillarini ta'minlash masalalari yoritilgan. Maqolada jinoiy jazo samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, xorijiy tajriba va istiqbolli yo'nalishlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jinoiy jazo, jazo samaradorligi, jinoyatchilik profilaktikasi, resotsializatsiya, insonparvarlik, jazo siyosati, huquqiy islohotlar.

THE NECESSITY AND PROSPECTS OF DEVELOPING A STRATEGY FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF CRIMINAL PUNISHMENT

Abstract. The article analyzes the relevance of developing a strategy for increasing the effectiveness of criminal punishment, its theoretical and legal foundations, as well as its practical significance. In addition, the issues of ensuring the principles of humanism, justice, and prevention in the system of sentencing and execution of punishments are highlighted. The article also scientifically examines modern approaches, foreign experience, and nepcnekumbe directions aimed at improving the effectiveness of criminal punishment.

Keywords: criminal punishment, effectiveness of punishment, crime prevention, resocialization, humanism, criminal policy, legal reforms.

Huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada jinoiy jazo instituti muhim ahamiyat kasb etib, u nafaqat sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik chorasi, balki shaxsni tuzatish, qayta tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Jinoiy jazoning samaradorligi – bu faqatgina jinoyatchilik sonining kamayishi emas, balki jazolangan shaxsning qayta jinoyat yo'liga kirmasligi va jamiyatga ijtimoiy moslashuvidir. Bugungi kunda ushbu jarayonni tizimli va strategik asosda tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Chunki ayrim holatlarda jazoning og'irligi jinoyatchilikning kamayishiga yetarli darajada ta'sir ko'rsatmayapti. Shu sababli jazo tizimini takomillashtirish, insonparvar va profilaktik yondashuvlarni kuchaytirish kun tartibiga chiqmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni tayyorlashimiz kerak” [1]. Jinoyat uchun qo'llanilgan jazoning natijasi ham ushbu maqsadni ro'yobga chiqishida ma'lum darajada ko'makchi vazifasini o'tashi lozim.

Jinoiy jazo – davlat tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qonun asosida qo'llaniladigan majburlov chorasi. Jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi [2]. Uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy adolatni tiklash;
- mahkumni tuzatish;
- yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;
- jamiyatda huquqiy tartibotni ta'minlash.

Jazoning samaradorligi ushbu maqsadlarga qay darajada erishilganligi bilan belgilanadi. Agar jazo shaxsni tuzatish va uning qayta jinoyat sodir etishining oldini olishga xizmat qilsa, bunday jazo samarali hisoblanadi.

Jinoiy jazoning samaradorligini oshirish strategiyasi – bu jinoiy jazoga tortishning va uni o'tattirishni, jazoga tortilgan shaxslarning axloqan tuzalishiga erishishni, reabilitatsiyasini ta'minlash va ular bilan olib borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish qaratilgan istiqboldagi vazifalar yig'indisi.

Jinoiy jazo samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqishning zarurati quyidagilarda ko'rinadi:

1. *Retsidiv jinoyatchilikning mavjudligi.* Amaliyotda ayrim mahkumlarning jazoni o'tab bo'lganidan keyin qayta jinoyat sodir etishi kuzatilmoqda. Bu holat jazo tizimida tarbiyaviy va profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

2. *Insonparvarlik tamoyilini kuchaytirish.* Zamonaviy huquqiy siyosat inson qadrini ulug'lashga asoslanmoqda. Shu nuqtai nazardan, jazo nafaqat jazolash, balki shaxsni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. *Jazo choralari individuallashtirish.* Har bir jinoyat va jinoyatchining xususiyatlari turlicha bo'lgani sababli jazo tayinlashda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa samarali strategiya ishlab chiqishni talab qiladi.

4. *Jamiyat xavfsizligini ta'minlash.* Samarali jazo siyosati jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlaydi, aholida adolatga ishonchni oshiradi.

5. *Xalqaro standartlarga moslashish.* Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlar jazo tizimini liberallashtirish va mahkumlarning huquqlarini ta'minlashni talab etmoqda.

Globalashuv davrida inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlarini jazoni ijro etish tizimiga to'liq singdirish talab etiladi.

6. *Jazoning ijtimoiy qiymati.* Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini kengaytirish va ularning ijrosini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan samaraliroqdir.

Strategiya quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab olishi lozim:

Jazolarni individuallashtirish va differentsiatsiya qilish. Aybdorning shaxsi, jinoyatning sabablari va ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, jazoni yanada aniqroq tayinlash.

Probatsiya xizmatini rivojlantirish. Jazoning ijtimoiy nazorat funksiyasini kuchaytirish orqali mahkumni jamiyatdan ajratmagan holda tuzatish.

Raqamlashtirish. Jazoni ijro etish jarayonida inson omilini kamaytirish va jarayonning shaffofligini ta'minlash uchun IT-texnologiyalarni joriy etish.

Jinoiy jazo samaradorligini oshirish strategiyasi doirasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Resotsializatsiya mexanizmi, ya'ni mahkumlarni kasb-hunarga o'rgatish va ularni ish bilan ta'minlash orqali ijtimoiy hayotga qaytarish tizimi tubdan yaxshilanadi.

Qonunchilikni liberallashtirish – jamiyat uchun katta xavf tug'dirmaydigan qilmishlar uchun iqtisodiy va tarbiyaviy ta'sir choralari kuchaytirish.

Jamoatchilik nazorati – jazoni ijro etish muassasalari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali tizimning ochiqqligini ta'minlash.

Jinoiy jazo samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari:

1. Alternativ jazo choralari kengaytirish. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini qo'llash:

- majburiy jamoat ishlari;
- axloq tuzatish ishlari;
- jarima;
- probatsiya nazorati.

Bu choralar mahkumning ijtimoiy muhitdan uzilib qolmasligiga xizmat qiladi.

2. Probatsiya tizimini takomillashtirish. Probatsiya mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish va nazorat qilishning samarali usuli hisoblanadi. U qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytiradi.

3. Psixologik va ijtimoiy rehabilitatsiya. Mahkumlar bilan psixologik ishlash, kasb-hunar o'rgatish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari jazoning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

4. Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Jazoni ijro etish muassasalarida raqamli nazorat va tahlil tizimlarini qo'llash boshqaruv samaradorligini oshiradi.

5. Jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish. Nodavlat tashkilotlar, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini ta'minlash mahkumlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga yordam beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda jinoyat va jazo siyosati insonparvarlik tamoyili asosida takomillashtirilmoqda. Jumladan:

- ayrim jinoyatlar dekriminalizatsiya qilinmoqda;
- ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar kengaytirilmoqda;
- probatsiya xizmati rivojlantirilmoqda;
- mahkumlarning huquqlarini himoya qilish kuchaytirilmoqda [3].

Bu islohotlar jazo tizimining samaradorligini oshirish va shaxsni qayta tarbiyalash maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Kelgusida jinoiy jazo samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- sun'iy intellekt asosida kriminologik tahlillarni joriy etish;
- mahkumlarni ish bilan ta'minlash dasturlarini kengaytirish;
- yoshlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish;
- jazo ijrosida xalqaro tajribalarni keng qo'llash;
- raqamli probatsiya tizimini rivojlantirish.

Xalqaro tajribadan ma'lum bo'lishicha, zamonaviy dunyoda jazo samaradorligini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Muqobil jazo turlarini kengaytirish: rivojlangan davlatlar (Yevropa Ittifoqi, Kanada)

ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni (probatsiya, jamoat ishlari va boshqalarni) keng qo'llamoqda. Bu davlat xarajatlarini kamaytirish va mahkumning jamiyatdan uzilib qolmasligini ta'minlaydi.

“Risk-ehtiyoj-javob” (RNR) modeli: Kanada va AQSH tajribasida qo'llaniladigan bu model jinoyatchining qayta jinoyat sodir etish xavfini (risk) baholash va uning aynan qaysi ehtiyojlari (need) jinoyatga undaganini aniqlab, shunga mos rehabilitatsiya dasturini (responsivity) ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tiklanuvchi odil sudlov (Restorative Justice): bunda asosiy e'tibor jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash va aybdorni o'z qilmishini anglab yetishiga qaratiladi. Skandinaviya davlatlarida bu usul retsidiv (qayta jinoyat sodir etish) darajasini sezilarli darajada kamaytirgan.

Raqamlashtirish: xalqaro amaliyotda (Germaniya, Xitoy) jazo tayinlashda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilidan foydalanilmoqda. Bu sud qarorlarining bir xilligini va adolatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jazo samaradorligi bo'yicha tadqiqot olib borgan ko'pchilik olimlar o'rtasida ikkita asosiy yondashuv mavjud:

Birinchisi, jazoning muqarrarligi nazariyasi. Jazoning og'irligi emas, balki uning muqarrarligi (hech bir jinoyat jazosiz qolmasligi) eng katta tiyib turuvchi omildir [4].

Ikkinchisi, rehabilitatsiya va resotsializatsiya. Zamonaviy kriminologlarning ta'kidlashicha, qat-tiq jazolar doim ham xavfsizlikni ta'minlay olmaydi. Aksincha, mahkumning ijtimoiy moslashuvi (ish bilan ta'minlash, ta'lim berish va boshqalar) retsidivni kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, jazoni ijro etishga jalb etilgan barcha toifadagi xodimlar sinchkovlik bilan tanlanishi kerak, chunki shaxsning to'g'ri yo'lni topib ketishi xodimning vijdonliligi, insonparvarligi, bilimliligi va shaxsiy fazilatlariga ko'p jihatdan bog'liq [5].

Jazoning samaradorligi strategiyasi quyidagilarni o'z ichiga olsa yaxshi samara beradi:

individuallashtirish – har bir shaxsning psixologik portretidan kelib chiqib jazo va tuzatish choralari belgilash.

jamoatchilik nazorati – jazoni ijro etish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirish.

prognozli tahlil – jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan prognoz qilish va jazoni profilaktik vosita sifatida ishlatish.

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi qayta ko'rib chiqilishi lozim [6].

Aynan ushbu konsepsiyaning qayta ko'rib chiqilishi jinoiy jazoning samaradorligini oshirish strategiyasini mustahkamlashga hamda yuqori natijalarga erishishga bevosita asos bo'ladi.

Shuningdek, fikrimizcha, quyidagilar jazoning samaraligiga xizmat qiladi:

1. Turli dasturlarni belgilash va ularni amalga oshirishda tashabbuskor guruhlar va fuqarolarni qo'llab-quvvatlash.

2. Jamoatdan kechirim so'rash bilan o'taladigan jazolar va huquqbuzarliklar ro'yxatini ishlab chiqish.

3. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlarini ko'paytirish.

4. Jinoiy jazoning samaradorligini oshirish bo'yicha strategiya ishlab chiqish.

5. Jinoiy jazoning samaradorligini oshirish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish.

6. Mahkumlarni ozodlikka tayyorlash bo'yicha ilmiy tahlil, pedagogik va psixologik

yondashuv asosida Prezident yoki Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadigan alohida dastur qabul qilish. Dasturda:

mahkumlarni ozodlikda to'g'ri hayot yo'lini topib ketishlari hamda ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish borasidagi ishlarga daxldor davlat idoralarining ozodlikdan mahrum etish joylariga kelishini ta'minlash hamda ular tomonidan mahkumlar muammolarini o'rganib hal etish choralari ko'ra boshlashlari bo'yicha aniq hamkorlik mexanizmini ko'rsatish;

mahkumlarni ozod bo'lishidan oldin axloqan tuzatish va qayta jinoyat sodir etmasligiga erishish borasida o'tkaziladigan kompleks tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilash;

yosh mahkumlarni tarbiyalash va axloqan tuzatish, ularning Vatanparvarligini oshirish ishlarini kuchaytirish maqsadida har bir muassasada pedagog-tarbiyachi lavozimlarini joriy etish;

mahkumlar tarbiyasi bilan shug'ullanadigan xodimlarning faoliyatini samarali tashkil etish va ularning ijtimoiy himoyasini oshirish, xizmat yilini pedagogik stajga kiritish;

manzil-koloniylarida mahkumlar tarbiyasi bilan bevosita shug'ullanuvchi katta inspektor-ijtimoiy xodim lavozimini ofitserlik lavozimiga o'zgartirish.

7. Mahkumlarni tuzalish yo'liga o'tgan yoki o'tmaganligini aniqlash bo'yicha Jinoyat-ijroiya kodeksida mezonlar belgilangan bo'lsa-da, biroq uni aniqlashning metodikasi mavjud emas. Ushbu muammoni samarali yechimiga erishishda yetakchi olimlar, amaliyot xodimlari, pedagog va psixologlarni jalb etish, shu jumladan chet el tajribasini o'rganish muhimligini inobatga olib, fundamental ilmiy tadqiqot o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, jinoiy jazoning samaradorligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Samarali jazo siyosati nafaqat jinoyat uchun javobgarlikni ta'minlaydi, balki shaxsni tuzatish, uni jamiyatga qayta moslashtirish va yangi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bois, jazo tizimini insonparvarlik, adolat va profilaktika tamoyillari asosida takomillash-tirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan strategiya tarbiyalash va jamiyatni sog'lomlashtirish vositasiga aylanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar / References

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 232-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, 7-moddasi. <https://www.lex.uz/acts/111453>
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari. https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/11-_toplam_xuquqbuzarlik_lar_profilaktikasi.pdf
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining jinoyat huquqi. – Toshkent, 2020. <https://library.tsul.uz/uz/books/24661>
5. BMTning mahkumlar bilan munosabat bo'yicha minimal standart qoidalar (Nelson Mandela qoidalar), 74-qoida. <https://lex.uz/docs/7352133>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/8050769>

HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SUN'IY INTELLEKT PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH ZARURATI



Mirzatillayev Umid Izzatillayevich

O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti,
bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori

Исследовательский институт
криминологии Республики
Узбекистан, главный научный
сотрудник, доктор философии
по юридическим наукам

Research Institute of
Criminology of the Republic of
Uzbekistan, Chief Researcher,
Doctor of Philosophy in Law

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda milliy sun'iy intellekt platformalaridan foydalanish zarurati ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi doirasida ishlab chiqilayotgan "Criminology AI" milliy sun'iy intellekt platformasi jamoat xavfsizligini ta'minlashning innovatsion vositasi sifatida asoslangan. Maqolada ushbu platformaning jamoat xavfsizligini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilib, ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat xavfsizligi, sun'iy intellekt, "Criminology AI", milliy sun'iy intellekt platformasi, kriminologik tahlil, jinoyatchilikni prognoz qilish, raqamli kriminologiya, manzilli profilaktika, jamoat tartibi.

THE NECESSITY OF USING NATIONAL ARTIFICIAL INTELLIGENCE PLATFORMS IN CRIME PREVENTION AND ENSURING PUBLIC SAFETY

Abstract. This article provides a scientific and practical analysis of the necessity of using national artificial intelligence platforms in crime prevention and ensuring public safety. It substantiates the "Criminology AI" national artificial intelligence platform – being developed by the Criminology Research Institute of the Republic of Uzbekistan as part of a scientific and practical research project – as an innovative tool for ensuring public safety. The article highlights the significance of this platform in strengthening public safety and formulates scientific and practical conclusions.

Keywords: crime prevention, public safety, artificial intelligence, "Criminology AI," national artificial intelligence platform, criminological analysis, crime forecasting, digital criminology, targeted prevention, public order.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati va kriminologiya fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning zamonaviy ko'rinishlari tobora murakkablashib, ular an'anaviy ijtimoiy-huquqiy omillar bilan bir qatorda raqamli muhit, axborot texnologiyalari, urbanizatsiya, migratsiya, ishsizlik, oilaviy-maishiy nizolar, yoshlar bandligi, mahalla infratuzilmasi va hududiy kriminogen vaziyat bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'lmoqda [1].

O'zbekiston sharoitida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi izchil rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, amaliyotda mavjud tahliliy mexanizmlar ko'p hollarda sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarliklar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni umumlashtirish, hududlar kesimida solishtirish